



FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



FARG'ONA VILOYATIDA QURILISH ISHLARI



2022- yil yanvar-dekabr

2022- yil yanvar-dekabr oylari uchun Farg'ona viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-dekabr oylariga, Farg'ona viloyatida jami 8 558,1 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 112,7 % ni tashkil etdi.




Qurilish ishlari hajmining tarkibi, %da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.



Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu — o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



2023- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra qurilish ishlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2022- yilning mos davri bilan solishtirganda o‘sish sur’ati 112,2 % oshgan (430 birlik).



Qurilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo‘nalishlari kesimida qaraganda:

Binolar va inshootlar qurish yo‘nalishi 55,3 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 111,5 foizga oshgan (226 birlik);

Fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 12,4 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 132,2 foizga oshgan (120 birlik);


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 32,3 foiz ulushni va 107,0 foiz o‘sish sur’atini tashkil etdi (84 birlik).



**Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan
shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar
to'g'risida ma'lumotlar, birlik**


	holatiga:		o'tgan yilga nisbatan, %da
	01.01.2022- y.	01.01.2023- y.	
Farg'ona viloyati	3538	3968	112,2
Farg'ona sh.	957	1095	114,4
Qo'qon sh.	344	373	108,4
Quvasoy sh.	129	141	109,3
Marg'ilon sh.	331	330	99,7
Oltiariq	117	146	124,8
Qo'shtepa	101	116	114,9
Bag'dod	161	181	112,4
Buvayda	135	138	102,2
Beshariq	95	99	104,2
Quva	140	161	115,0
Uchko'prik	197	218	110,7
Rishton	86	106	123,3
So'x	79	90	113,9
Toshloq	131	147	112,2
O'zbekiston	98	133	135,7
Farg'ona	121	142	117,4
Dang'ara	137	152	110,9
Furqat	83	91	109,6
Yozyovon	96	109	113,5

**2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra
Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish
korxonalarini ulushi, %da**



Joriy yilning yanvar-dekabr oylariga, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 651,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 169,0 %ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2021- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan 6,5 % punktga ko'payib, 19,3 %ni tashkil etdi.

**2022- yil yanvar-dekabr
oylariga yirik qurilish tashkilotlari tomonidan
bajarilgan qurilish ishlari**



Maʼlumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Margʼilon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 45,0 %i yoki 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 141,6 % oʼsish surʼati), Fargʼona shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 28,6 %i yoki oʼtgan yilning mos davriga nisbatan 342,9 % oʼsish surʼati) va Dangʼara tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 8,3 %i yoki oʼtgan yilning mos davriga nisbatan 9,5 m. oʼsish surʼati)ga toʼgʼri keldi.



Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

2022- yilning yanvar-dekabr oylariga kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 57,4 %i to‘g‘ri kelib, 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga ko‘rsatkichiga nisbatan 6,7 foizga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning mos davriga nisbatan 100,4 %ni tashkil etgan holda 4 911,0 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, %da

64,1
2021- yil
yanvar-dekabr

57,4
2022- yil
yanvar-dekabr



Ma’lumot uchun: joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko‘rsatkichi Farg‘ona shahri (1 466,6 mlrd. so‘m yoki umumiy hajmga nisbatan 103,1 %), Marg‘ilon shahri (420,1 mlrd. so‘m yoki 75,9 %), Qo‘qon shahri (359,6 mlrd. so‘m yoki 103,0 %) va Bag‘dod tumani (312,6 mlrd. so‘m yoki 97,5 %) to‘g‘ri keldi.

2022- yil yanvar-dekabr oylaridagi
Farg‘ona viloyatida qurilish ishlari


Qurilish ishlaringning umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi 23,3 %ni tashkil etdi yoki 1 995,9 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 115,5 %ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 402,8 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa 8 155,3 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 4,7 % va 95,3 %ni tashkil etdi.



2022- yil yanvar-dekabr oylaridagi
Farg'on'a viloyatida qurilish ishlari

**Umumiy hajmdan yangi qurilish,
rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta
qurollantirish ishlari ulushi**

2022- yil yanvar-dekabr oylarida

Bajarilgan qurilish ishlaringning katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaringning 75,1 %i yoki 6 424,8 mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan 1 420,7 mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 22,1 %ni tashkil etdi.




Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 1 848,0 mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 28,8 %ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-dekabr oylarida

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, %da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya va qayta qurollantirish (mlrd. so'm)
Farg'ona viloyati	8 558,1	112,7	6 424,8
Farg'ona sh.	2256,0	119,0	1682,1
Qo'qon sh.	596,0	106,2	463,3
Quvasoy sh.	240,8	120,0	195,0
Marg'ilon sh.	1265,7	103,4	1260,6
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	349,3	129,2	212,6
Qo'shtepa	412,7	132,1	264,6
Bag'dod	429,5	118,2	225,0
Buvayda	286,8	131,6	188,7
Beshariq	215,2	132,8	157,7
Quva	254,0	100,2	177,4
Uchko'prik	259,6	113,4	183,2
Rishton	142,6	111,6	104,9
So'x	191,0	104,9	141,1
Toshloq	354,5	129,1	230,1
O'zbekiston	254,6	121,9	212,8
Farg'ona	261,4	110,0	132,4
Dang'ara	368,5	102,4	296,4
Furqat	156,4	61,9	123,8
Yozyovon	263,5	100,6	173,1

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Bino va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 17,7 %ni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-dekabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan 6,0 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2021- yilning yanvar-dekabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan 7,9 % punktga kamayib, 51,8 %ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2021- yilning yanvar-dekabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan 1,9 % punktga ko'payib, 30,5 %ni tashkil etdi.

Ulushi, %da



2021- yil
yanvar-dekabr

2022- yil
yanvar-dekabr


Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 26,7 %ni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 1,9 % punktga ko'paydi.


Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 72,5 % (2,3 % punktga kamaydi) hamda norasmiy sektoring ulushi 0,8 %ni tashkil etdi (0,4 % punktga ko'paydi).




Ulushi, %da



Yirik qurilish tashkilotlari




2021- yil yanvar-dekabr



2022- yil yanvar-dekabr

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 4,5 % punktga ko'paydi va 15,2 %ni tashkil etdi. Qolgan 84,8 %i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 4,5 % punktga kamaydi.



2022- yil yanvar-dekabr oylaridagi
Farg'onaga viloyatida qurilish ishlari

Qurilish ishlari hajmi yuqori shahar va tumanlar



Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi
Tel.: 73 241-98-42